



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

**TA'LIM JARAYONIDA YUQORI SINF O'QUVCHILARINI
KASBGA YO'NALTIRISHNING ASOSIY JIHATLARI**

M.J.Toshov

Oriental universiteti dotsenti, p.f.n.

A.A.Karimov

Oriental universiteti Pedagogika yo'nalishi

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lif jarayonida yuqori sinf o'quvchilarini kasb tanlashda duch keladigan qiyinchiliklari, ularga motivatsiyaning ta'siri, shuningdek, kasbga yo'naltirishning asosiy jixatlari, to'g'ri kasb tanlashning samarali yo'llari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, motiv, motivatsiya, zamonaviy kasblar, kasbga oid maslaxat.

Абстрактный. В статье рассматриваются трудности, с которыми сталкиваются старшеклассники при выборе профессии в процессе обучения, влияние мотивации на них, а также основные аспекты профориентации и эффективные способы правильного выбора профессии.

Ключевые слова: выбор карьеры, мотив, мотивация, современные профессии, карьерные советы.

Abstract. This article discusses the adaptation of high school students to the profession in the educational process, the specific aspects of their motivation, the direction of the profession, and effective ways to choose the right profession.

Keywords: career choice, motive, motivation, modern professions, career advice.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir insonning kasb tanlash jarayoni shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi. Kasb tanlash faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki insonning ruhiy holati va jamiyatdagi o'rniga ham ta'sir etadi. Motivatsiya ushbu jarayonning asosiy qismi bo'lib, unda shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va tashqi omillar o'zaro uyg'unlashadi.

Kasb tanlash masalasi nafaqat shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati, balki uning ijtimoiy moslashuvi va ruhiy barqarorligini ta'minlashda ham muhimdir. Har bir inson o'z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos keladigan kasbni tanlash orqali nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki ichki qoniqishga ham erishadi.

Yuqori sinf o'quvchilarining o'z qibiliyatlariga yarasha ongli ravishda aniq maqsadga yo'naltirilgan zamonaviy kasb tanlashlariga ko'mak bermoq lozim. O'quvchi o'z ixtisosligini ongli ravishda tanlashi yetuk kadr bo'lib shakllanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun turli fanlardan chuqur tayyorgarlik ko'rishlari, o'zlarining bilimlarini oshirib borishlari maqsadga muvoiq. Maktab o'quvchilarining kasb tanlashlari



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tashqi xolat baxolariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bogliqdir.

O'quvchilarga motivatsiya berish ota-onalar va o'qtivchilarning vazifasi hisoblanadi. Motivatsiya „motiv“ so'zidan olingan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi.

Motivatsiya — bu odamlar va ma'lum bir vaqtida xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda inson ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi.¹¹ Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatic ruhiy holat — bu istak Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin.

Psixolog V.A.Kruteskiy o'spirinlarda uchrash mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni aloxida ta'kidlab o'tadi:

- biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi;
- Vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilib ko'rsatish;
- oilaviy an'analariga rioya qilishi;
- do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi;
- ish joyining uyga yaqinligi;
- moddiy ta'minlanganlik;
- o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir.

Hozirgi kunda zamonaviy kasblar, jumladan, IT texnologiyalar soxasi, arxitektura dizayn soxasi, blogerlik, reklama menijerligi, SMM mutaxasisi, web dizaynerligi, kino animatori, 3D, 5D, 7D kinomatografligi, tyutorlik kabi kasblar yoshlar tomonidan zo'r qiziqish bilan qabul qilinmoqda. Yoshlar shu sohalarga qiziqish bildirib, kelajakdag'i faoliyatlarini zamonaviy kasblar bilan bog'lashga intilayotganlari hech kimga sir emas.

Yuqori sinf o'quvchilar kasb tanlashdagi turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda.Ular quyidagilar:

1. Kasbiy bilimning rivojlanmaganligi;
- 2 .O'quv fanlarini yaxshi o'zlashrirmaslik;
3. Kasbiy bilim malaka-ko'nikma yetishmasligi;
4. Aniq kasb tanashda ikkalanishlik;
5. Kasbiy malakaga ega bo'lmay turib, kasb tanlash.

Kasbga oid maslaxatlaning maqsadi - o'quvchilarga kasb tanlashda yordam berishdan iborat bo'lib, ularning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatları va boshqa xususiyatlarini o'rGANISHGA tayanadi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiradi:

- Dastlabki kasbga oid maslaxatlar;

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- Kasbga oid axborot manbalar haqidagi ma'lumotlar maslaxatlari;
- Kasbga oid boshlangich shakllantirish maslaxatlari;
- Kasbga shaxsni mosligini aniqlash maslaxatlari;
- Kasbga oid muvofiqlashtirish;
- Kasbga oid asosiy shakllantirish;
- Kasbga oid nazorat maslaxatlari;

Shu omillar tadqiqotlarida aniqlanganki, maktab o'quvchilarining 50 foizi individual kasb maslaxatlariga muxtoj. Bularga maslaxatlarga quyidagilar kiradi:

- u yoki bu sabab mustaqil kasb tanlay olmaydigan o'quvchilar;
- ota-onalari bilan ziddiyat paydo bo'ladigan o'quvchilar;
- o'zining tanlagan kasb yo'lining to'g'rilingini isbot kilish istagida bo'lgan o'quvchilar.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan xolda yuqori sinf o'quvchilarini kasb tanlash bo'yicha quyidagil ishlarga yo'llash tavsiya etiladi:

- Darslarda to'g'ri kasb tanlashga yo'llash.
- Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash.
- To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash.
- Ishlab chiqarish korxonalari va maktabni bitirgandan so'ng moddiy ishlab chiqarish soxasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar.
- Xar xil madaniy ommaviy tadbirlar o'tkazish.
- Kasblarni chukur o'rganish
- Fakultativ mashgulotlar.

Hulosi. Bu ishlarning pirovard maqsadi- o'quvchini mustaqil o'ylab ongli ravishda kasb tanlashga yetaklash va maktab sharoitida imkoniboricha kasbga dastlabki psixologik tayyorgarlikni ta'minlashdir. O'quvchilar bilan bunday tarzda ish olib borishda gurux va individual kasbiy konsultatsiyalar shaklidan foydalananish maqsadga muvofiq.

Kasb tanlashdagi qiyinchiliklarni oldini olish, kasbiy motivatsiyalarni va o'z-o'ziga ishonchni oshirish kabi hislatlarni o'quvchilarga singdira olsak, jamiyatga yetuk mutaxasislar tayyorlab berishdek kabi ma'suliyatli ishni amalga oshirgan bo'lamic.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Р.Г.Муллахметов “Касб танлашга йуллаш” –TDPU.- Toshkent.1998y.

2. Jo`raev R.H. O`zbekiston umumiyl o`rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb – hunarga yo`naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishining muammolari. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb – hunarga yo`naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent 2003



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

3. S.A. Boltaboyev U. Tolipov. Umumiy o'rta talim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika Toshkent 2000.
4. Sharipov, U. K. (2015). Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik asoslari
5. Uyushmagan yoshlar va ularning ijtimoiy-psixologik integratsiyasi. 2022
6. N.N.Azizzo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat 2006

